

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA MOSLASHUVNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Gaffarova Buvnazifa Mustafayevna

Samarqand viloyat Bulung'ur tumani 52-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda maktabga moslashuv jarayoni, uning ijtimoiy-psixologik muammolari hamda bu jarayonga ta'sir etuvchi omillar yoritiladi. Shuningdek, oila va maktab hamkorligining ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: moslashuv, kichik maktab yoshi, psixologiya, ijtimoiy muhit, emotsional holat, oʻqish jarayoni, stress, shaxs rivojlanishi

KIRISH

Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun yangi ijtimoiy muhitga — maktab hayotiga moslashish murakkab psixologik jarayon hisoblanadi. Bu davrda bola bogʻcha muhitidan maktab tizimiga oʻtadi va yangi talablar, qoidalar hamda mas'uliyatlar bilan yuzlashadi. Moslashuv jarayonida bolalarda turli ijtimoiy-psixologik muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ulardan biri emotsional beqarorlik boʻlib, bola yangi muhitga tezda koʻnika olmasligi natijasida xavotir va qoʻrquv his qiladi.

Shuningdek, oʻqishga qiziqishning pasayishi, diqqatni jamlay olmaslik va tengdoshlari bilan muloqotda qiyinchiliklar ham kuzatiladi. Ba'zi bolalarda oʻziga ishonchsizlik va tortinchoqlik kuchayadi. Psixologik jihatdan bu muammolarning kelib chiqishiga oilaviy tarbiya, bolaning individual xususiyatlari hamda maktab muhitining ta'siri sabab boʻladi. Yangi talablar bolada stress holatini yuzaga keltirishi mumkin.

Oʻqituvchi va psixologning toʻgʻri yondashuvi moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Bolaga iliq munosabat, qoʻllab-quvvatlash va ragʻbat berish uning oʻziga ishonchini oshiradi. Ota-onalar ham bu jarayonda muhim rol oʻynaydi. Ular farzandini qoʻllab-quvvatlashi, uning maktab haqidagi fikrlarini tinglashi va ijobiy motivatsiya berishi zarur.

Guruhiy oʻyinlar, treninglar va psixologik mashgʻulotlar bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga yordam beradi. Bu ularning muloqot koʻnikmalarini rivojlantiradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda moslashuv muammolari tabiiy jarayon boʻlib, ularni bartaraf etishda oila, maktab va psixolog hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada maktabga qabul qilingan olti yoshli bolalarni yangi ijtimoiy muhitga moslashtirish, barkamol shaxsni tarbiyalashda u dunyoga kelganidan boshlab,

to maktabgacha tarbiya yoshigacha bo'lgan davrdagi psixologik xususiyatlarini bilish tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalik, ya'ni bola tug'ilganidan boshlab, maktab yoshigacha bo'lgan davrini qamrab olgan. Shuningdek, bolalar psixologiyasining hozirgi vaqtdagi dolzarb muammolari ko'proq o'z aksini topgan.

Bular bolani o'quv faoliyatiga "silliq" o'tishini ta'minlaydi. Maktabga qabul qilingan olti yoshli bolalarni yangi ijtimoiy muhitga moslashtirish maktab psixologi va boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatida muhim o'rin tutadi.

Olti yoshli bolalarning maktabga moslashuvi va rivojlanish dinamikasini o'rganish uchun maktab amaliyotchi psixologlari va boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan trening mashg'ulotlari va korreksion rivojlantirish mashg'ulotlarini o'tkazilishi muhimdir.

Bolalarning maktab sharoitiga moslashuvini bir necha bosqichlarga bo'lib o'rganish mumkin, ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, organizm funksional tizimining turli zo'riqqanlik darajasi bilan tavsiflanadi.

Birinchi bosqich – mo'ljal oluvchi bo'lib, bunda tizimli muloqot boshlanishi bilan bog'liq yangi ta'sirlar majmuasiga organizmning deyarli barcha tizimlari jo'shqin reaksiyalar bilan javob qaytaradi. Bu "fiziologik o'zgarishlar" uzoq davom etadi (2-3 hafta).

Ikkinchi bosqich – beqaror moslashuv, organizm bu ta'sirlarga qandaydir maqbul yoki qulayroq bo'lgan variantlarni izlaydi. Bu bosqichda "noodatiy holatlar" asta-sekin susayadi.

Uchinchi bosqich – nisbatan barqaror moslashuv davri. Bunda organizm bosimga qarshi kamroq zo'riqish talab etuvchi variantlarni topadi. O'quvchi qanday ishni bajarmasin, bu xoh yangi bilimlarni o'zlashtiruvchi faoliyat bo'lsin, xoh statistik bosim yoki turli jamoalardagi muloqotdagi psixologik bosim bo'lsin organizm aniqrog'i, uning har bir tizimi zo'riqish faoliyati bilan javob beradi. Shuning uchun har bir tizim qanchalik ko'p zo'riqsa, organizm shunchalik ko'p zahirasini yo'qotadi. Biz bilamizki bola organizmining imkoniyatlari u darajada ko'p emas. Uzoq davom etuvchi zo'riqish, charchoq esa, boladan ko'p energiyani talab etadi. Moslashuvning 3-bosqichi taxminan 5–6 hafta davom etadi. O'quv yilining birinchi oyi esa eng murakkab moslashuv davri hisoblanadi. Bu davrda bolaning yangi muhitga moslashishi, o'qish jarayoniga kirishib ketishi va psixologik barqarorlikni shakllantirishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Moslashuv jarayonining muvaffaqiyati bolaning sog'lom holati hamda o'qishga psixologik tayyorgarligi darajasi bilan belgilanadi. Agar bola jismonan sog'lom, ruhiy jihatdan tayyor bo'lsa, u maktab muhitiga tezroq va osonroq moslashadi. Aksincha, turli psixofiziologik yoki emotsional qiyinchiliklar moslashuv jarayonini sekinlashtirishi mumkin.

Olti yoshli bolalarning maktabga moslashuvini yengillashtirish uchun bir qator muhim tavsiyalar ishlab chiqilgan. Avvalo, o'qish va o'qishdan tashqari faoliyatlar tizimli va muvozanatli tashkil etilishi lozim. Ta'lim dasturini ortiqcha murakkablashtirish va jadallashtirishdan qochish, qo'shimcha topshiriqlarni cheklash ham muhim hisoblanadi. Nevrologik yoki funksional buzilishlar kuzatilgan bolalar bilan individual korreksion-rivojlantiruvchi ishlar olib borilishi zarur. Dars jarayonida guruhiy va individual yondashuvni uyg'unlashtirish, materialni tushuntirish va yozuvga o'rgatishda har bir bolaning imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Shuningdek, o'quvchilar uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish, ularning asab tizimi va ish qobiliyatini hisobga olib, murakkab fanlarni yengilroq fanlar bilan almashlab o'tish tavsiya etiladi.

Bolalarning charchashi va zo'riqishini oldini olish maqsadida tanaffussiz yoki qo'shaloq darslarni tashkil etmaslik, boshlang'ich sinflarda dars yuklamasini me'yorlashtirish zarur. Xususan, 1-sinf o'quvchilarining moslashuv davrida darslarni qisqartirilgan vaqt rejimida tashkil etish, bosqichma-bosqich yuklamani oshirib borish tavsiya etiladi. Moslashuv davrida shaxslararo munosabatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zan bolalarda toliqish, zerikish, mudroq holatlari kuzatilishi mumkin. Bunday vaziyatlarda qisqa psixologik o'yinlar, mashqlar va treninglardan foydalanish samarali hisoblanadi. Shuningdek, bolalarda emotsional barqarorlik va irodaviy sifatlarni shakllantirish, bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan korreksion o'yinlar tashkil etish muhimdir.

Mayda qo'l motorikasi va ko'rish-harakat koordinatsiyasini rivojlantirish ham o'quv jarayonida katta ahamiyatga ega. Dars jarayoniga barcha o'quvchilarni faol jalb qilish, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish hamda kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Shuningdek, darslarni tinch, do'stona va stressdan holi muhitda tashkil etish, relaksatsiya mashqlaridan foydalanish ham ijobiy natija beradi. Moslashuv jarayoni qiyin kechayotgan bolalar bilan individual korreksion mashg'ulotlar olib borish, ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish ham muhim hisoblanadi. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni esa rag'batlantirish va jamoaviy ishlarda faol ishtirokini ta'minlash orqali ularning o'ziga ishonchini oshirish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda esa eng avvalo qulay, xavfsiz va do'stona muhit yaratish zarur. Ta'lim jarayoni bolaga yo'naltirilgan bo'lib, asosan o'yin faoliyatiga asoslanishi lozim. O'yin orqali ta'lim berish bolalarda qiziqish uyg'otadi va o'qishga ijobiy munosabat shakllantiradi.

Ta'lim jarayoni bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, oddiydan murakkabga tamoyili asosida tashkil etilishi kerak. Shu bilan birga, bolalarda to'g'ri nutqni rivojlantirish, talaffuz va grammatik ko'nikmalarni shakllantirish muhimdir. Tarbiyachi va pedagoglar o'z nutqi va muomalasiga ham alohida e'tibor qaratishlari

lozim. Bolalarda esa o'z fikrini erkin ifoda etish, to'g'ri gap tuzish va yozuv malakalariga ishonchni shakllantirish asosiy vazifalardan biridir.

XULOSA

Umuman xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, bolalarni 6-7 yoshda maktab ta'limiga tayyorlash, ularda ertaga maktab dasturlarini yaxshi o'zlashtirishlari, shuningdek ularning intilishlari, qobiliyatlarini namoyon qilishga imkoniyat yaratadi. Bolalarni maktabga tayyorlashda, maktabgacha yoshdagi bolalik inson tafakkuri va umuman inson shaxsini shakllantirish jarayonida alohida rol o'ynaydi, jamiyatimizning ongli avlodini tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi// <https://www.lex.uz> 5. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
3. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
4. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
5. Ziyo.net